

BOJXONA YIG'IMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Mexroj Bobirovich SIROCHEV

o'qituvchi

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada bojxona yig'implari tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Jumladan, bojxona yig'implarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, undirish jarayonidagi mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari o'rganilgan. Shuningdek, ilg'or xalqaro tajribalar asosida bojxona yig'implarini yanada samarali va shaffof tizimga aylantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: bojxona yig'implari, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro standartlar, optimallashtirish, implementatsiya, bojxona yig'implari stavkalari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАМОЖЕННЫХ СБОРОВ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Мехрож Бобирович СИРОЧЕВ

Преподаватель

Таможенный институт Таможенного комитета

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируются вопросы совершенствования системы таможенных сборов. В частности, рассматривается влияние таможенных сборов на экономику страны, существующие проблемы в процессе взимания сборов и пути их решения. Также представлены рекомендации по преобразованию системы таможенных сборов в более эффективную и прозрачную, основанные на передовом международном опыте.

Ключевые слова: таможенные сборы, внешнеэкономическая деятельность, международные стандарты, оптимизация, имплементация, ставки таможенных сборов.

Bojxona yig'implari mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat davlat byudjetini shakllantirish, balki tashqi savdo va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bojxona yig'implari davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda, chet el tovarlari bilan bo'lgan savdoni tartibga solishda, mahalliy sanoatni himoya qilishda va milliy iqtisodiyotning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyatga

ega. Ushbu tizim, shuningdek, davlat xavfsizligini ta'minlash, bojxona nazorati va xalqaro me'yorlarga muvofiqlikni saqlash orqali davlatning mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bojxona yig'imlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri keng qamrovli bo'lib, ular iqtisodiy o'sishning rag'batlantirilishi, davlat daromadlarining oshirilishi va xalqaro savdo jarayonlarining yanada samarali boshqarilishini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, bojxona yig'imlari tizimi tashqi savdo bilan shug'ullanayotgan barcha iqtisodiy subyektlarga, shu jumladan importchilar, eksportchilar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga ta'sir qiladi,. Ular davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim qismini tashkil etadi va mamlakatni iqtisodiy barqarorlikka olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Global iqtisodiyotda yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi, yangi xalqaro savdo shartnomalarining imzolanishi va bojxona tizimining raqamlashtirilishi kabi omillar, o'z navbatida, bojxona yig'imlari tizimini isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, bojxona yig'imlari tizimining zamonaviy talablar va global iqtisodiyot o'zgarishlariga moslashishi uchun zarur bo'lgan islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi [3].

Bojxona yig'imlari davlatning fiskal siyosatida muhim o'rin tutib, davlat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ular tashqi savdoni tartibga solish, ichki bozorni himoya qilish va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. To'g'ri belgilangan va samarali yig'iladigan bojxona yig'imlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, davlat xarajatlarini qoplashga xizmat qilishi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 16-moddasida "Yig'im deganda byudjet tizimiga ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik

ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi” [1].

F.Yu.Dolgova “Yig‘imlar odatda to‘lovchi tomonidan soliqlar kabi qabul qilinmaydi. Buning sababi, yig‘imni to‘ladi – shunga yarasha xizmatni oldi. To‘lovchi to‘lagan yig‘im evaziga moddiy xizmat qabul qilib oladi, shuning uchun uni to‘lashga psixologik jihatdan rozi bo‘ladi. Soliqlar esa shahsiylashtirilmagan ehtiyojlar uchun to‘lanadi. Yig‘imlarning huquqiy tabiati hamda aniq ta’rifini aniqlash uchun soliqlar va yig‘imlar bilan o‘zaro aloqasini aniqlash muhimdir. Ushbu muammo bir qancha yuridik adabiyotlarda ham muhokama qilingan, ammo yig‘imlarning huquqiy identifikatsiyasida hali ham muammolar mavjud” [6].


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-422-son qaroriga ko‘ra undirilgan bojxona yig‘imlarining:

75 foizi Davlat byudjetiga (2023-yilda 65 foiz);

22 foizi Bojxona qo‘mitasiga (2023-yilda 30 foiz);

3 foizi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkaziladi (2023-yilda 5foiz) [2].

So‘nggi yillarda undirilgan bojxona yig‘imlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat budjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlarining tarkibidagi salmog‘i doimiy ravishda sezilarli oshib bormoqda. Xususan, 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan (1-rasm).



1-rasm. Bojxona organlari tomonidan 2014-2023-yillarda

Davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarining tarkibida bojxona yig'implarining ulushi, foizda.

Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktyabr oylarida undirilgan 1 384,5 mlrd so'm yig'implardan 304,6 mlrd so'm yoki 22% Bojxona qo'mitasi Maxsus fondiga o'tkazilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan 2023-yilning shu davrida 1 416,5 mlrd so'mni tashkil etgan holda 31,5 mlrd so'mga yoki 2,2 foizga kamaygan. *(Bojxona qo'mitasi Maxsus fondiga 2024-yil 10 oyligi davomida o'tkazilgan yig'implar 2023-yilning mos davriga nisbatan 120,2 mlrdga yoki 28,3 % ga kamaygan)*

Mazkur tushumlarning asosiy ulushlari quyidagi bojxona yig'implari hissasiga to'g'ri keladi:

- bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'im – 273,1 mlrd so'm yoki 89,7 foiz;
- bojxona organlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun yig'im -30,9 mlrd so'm yoki 10,1 foiz.

Mazkur tushimlarning asosiy ulishlari quyidagi bojxona rejimlari hissasiga to'g'ri keladi:

“erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimi – 206,7 mlrd so'm yoki jami bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imning 67,8 foizni;

“eksport” bojxona rejimi – 19,9 mlrd so'm yoki 6,5 foizni;

boshqa bojxona rejimlari – 46,4 mlrd so'm yoki 15,2 foizni tashkil etgan.

Ushbu yig'implar tushumining 2,2 foizga kamayishi Vazirlar Mahkamasining 700-sonli qarorida keltirilgan bojxona yig'implari stavkalarining quyi diapazonlarida ko'proq BYDlar rasmiylashtirilganligi sababli yuz bergan.

Jumladan, 2024-yil 10 oyi davomida bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'im undirilishi belgilangan 828 342 ta BYDdan 219 914 tasi bojxona qiymati 10 000\$ dan past bo'lib, BHMning 0.5-1 baravari miqdorida undirilgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yil 10 oyi davomida jami 752 204 ta BYDdan 182 567 ta yoki 37 347 ta BYDga kamni tashkil etgan.

Biroq, BHMning 8 barobari undirilishi belgilangan bojxona qiymati 60-100 ming AQSH dollari oralig'idagi BYDlar 2024-yil 10 oyi davomida 71 909 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil mos davrida 75 927 ta yoki 4 018 taga ko'p bo'lgan.

BHMning 15 barobari undirilishi belgilangan bojxona qiymati 100-200 ming AQSH dollari oralig'idagi BYDlar 2024-yil 10 oyi davomida 50 996 tani tashkil etgan bo'lib, 2023-yil mos davrida 54 175 ta yoki 3 179 taga ko'p bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Bojxona yig'implari tizimi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va xalqaro savdo faoliyatini tartibga solishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq, hozirgi kunda ushbu tizim bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar tizimning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, davlat daromadlari va biznes muhiti uchun muayyan to'siqlar yaratmoqda. Quyida hozirgi bojxona yig'implari tizimidagi asosiy muammolar tahlil qilinadi.

Murakkab va ortiqcha rasmiyatchilik. Bojxona tizimidagi rasmiy protseduralarning murakkabligi va ortiqcha hujjatlashtirish tartib-taomillarining mavjudligi tadbirkorlar va import-eksport faoliyati bilan shug'ullanayotgan subektlar uchun jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Ayrim mamlakatlarda bojxona deklaratsiyalarini topshirish, mahsulotlarni sertifikatlash va bojxona tekshiruvlaridan o'tish uzoq davom etib, biznes jarayonlariga salbiy ta'sir qiladi.

Buning yechimi sifatida bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va ortiqcha rasmiyatchilikni kamaytirish, elektron bojxona tizimlarini keng joriy etish, xalqaro standartlarga muvofiq bojxona hujjatlarini avtomatlashtirish kabi choralarni aytib o'tishimiz mumkin.

Bojxona yig'implari stavkalarining yuqoriligi. Ko'plab mamlakatlarda bojxona yig'implari stavkalari juda yuqori bo'lib, bu import qilinayotgan mahsulotlarning narxining oshishiga olib keladi. Natijada, iste'molchilar yuqori narxlardan aziyat chekadi, korxonalar esa xorijiy bozorlardan mahsulot xarid qilishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, yuqori bojxona yig'implari tadbirkorlarni kontrabanda yo'llariga murojaat qilishga undaydi.

Bunga yechim sifatida esa bojxona yig'implari stavkalarini xalqaro standartlarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, iqtisodiy jihatdan asoslanmagan yuqori bojxona stavkalarini kamaytirish orqali biznesni rivojlanishiga

ko‘maklashish, import mahsulotlariga qo‘yiladigan tarif va notarif cheklavlarni tahlil qilib, ularni optimallashtirish kabi choralarni aytib o‘tishimiz mumkin.

Xalqaro hamkorlikning sustligi. Ko‘plab mamlakatlarda bojxona tizimi xalqaro hamkorlik darajasida samarali ishlamaydi. Xalqaro bojxona standartlariga moslashmaslik, ma‘lumotlar almashinuvining sustligi va boshqa davlatlar bilan hamkorlikning cheklanganligi bojxona yig‘imlarining samarali undirilishiga va xalqaro savdo jarayonlarining tezlashishiga to‘sqinlik qiladi.

Bunga yechim sifatida xalqaro bojxona tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ma‘lumot almashinuv tizimlarini rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos bojxona tartib-taomillarini joriy etish, erkin savdo bitimlarini imzolash orqali bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish kabi choralarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Bojxona yig‘imlari turli mamlakatlarda har xil tartibga solinadi va ularning undirilish tartibi bojxona ma‘muriyatining samaradorligi, biznes yuritish qulayligi va iqtisodiy shaffoflik bilan bog‘liq. Quyida dunyoning turli davlatlarida bojxona yig‘imlarini undirish va boshqarish bo‘yicha ilg‘or tajribalar keltirilgan.

Rossiya Federatsiyasida bojxona rasmiylashtiruv uchun yig‘imni hisoblash tovarlarning Rossiya rublidagi bojxona qiymatiga asoslanadi. Bu davlatda bojxona rasmiylashtiruv uchun yig‘imni miqdori cheklangan va 100 000 Rossiya rublidan oshmasligi ko‘rsatib qo‘yilgan. Tovarga deklaratsiyasini elektron shaklda taqdim etishda bojxona yig‘imlari belgilangan miqdorning 75 foizi miqdorida to‘lanadi.

2-jadval

Rossiya Federatsiyasida bojxona rasmiylashtiruv uchun yig‘im stavkasi

№	Tovarning bojxona qiymati	Bojxona rasmiylashtiruv uchun yig‘im
1.	200 ming rublgacha	375 rubl
2.	200 ming. rubl 1 tiyindan 450 ming. Rublgacha	750 rubl
3.	450 ming. rubl 1 tiyindan 1200 ming. Rublgacha	1500 rubl
4.	1200 ming. rubl 1 tiyindan 2500 ming rublgacha	4125 rubl
5.	2500 ming. rubl 1 tiyindan 5000 ming. Rublgacha	5625 rubl
6.	5000 ming. rubl.1 tiyindan 10000 ming. rublgacha	15000 rubl
7.	10000 ming. rubl.1 tiyindan yuqori	22500 rubl

Manba: <https://ru.wikipedia.org/wiki/> [8].

AQSh tajribasi – Raqamli va avtomatlashtirilgan tizim. AQSh bojxona va chegara xizmati (CBP – Customs and Border Protection) bojxona yig'imlarini undirishda avtomatlashtirilgan tizimlarga tayanadi.

ACE (Automated Commercial Environment) platformasi orqali bojxona yig'implari to'liq elektron shaklda amalga oshiriladi.

Yagona darcha (Single Window) tizimi orqali barcha bojxona to'lovlari va yig'implari bir joyda boshqariladi. Korrupsiyani kamaytirish uchun blokcheyn texnologiyalari tatbiq etilgan [5].

Yevropa Ittifoqi (YeI) tajribasi – Yagona bojxona ma'lumotlar bazasi. Yevropa Ittifoqida bojxona yig'implari Yagona Bojxona Kodeksi (UCC – Union Customs Code) asosida boshqariladi.

Barcha a'zolar yagona "EU Customs Tariff Database" (TARIC) tizimidan foydalanadi. Elektron deklaratsiya majburiy bo'lib, barcha bojxona yig'implari avtomatik hisoblanadi. Tranzit uchun maxsus yig'implar bor, bu xalqaro yuk tashish jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi.

Singapur tajribasi – soddalashtirilgan va shaffof tizim. Singapur bojxona tizimi dunyodagi eng tezkor va shaffof tizimlardan biri hisoblanadi.

TradeNet platformasi orqali barcha bojxona yig'implari 24 soat ichida avtomatik ravishda hisoblanadi va to'lanadi.

Biznes uchun "Green Lane" tizimi mavjud, bu esa ishonchli kompaniyalar uchun bojxona jarayonlarini tezlashtiradi.

Differensial yig'implar tizimi: tovar turiga qarab bojxona yig'implari turlicha belgilanadi.

Xitoy tajribasi – raqamlashtirish va real vaqtda monitoring. Xitoy bojxona tizimi raqamlashtirish va real vaqtda monitoring tizimi bilan ajralib turadi.

"Smart Customs" loyihasi doirasida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalaniladi. AI orqali bojxona yig'implari bo'yicha oldindan prognozlash amalga oshiriladi. Elektron to'lov tizimlari orqali bojxona yig'implari 24/7 rejimida qabul qilinadi [5]

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bojxona yig'imlarini undirish bo'yicha quyidagi ilg'or yondashuvlar mavjud:

Elektron va avtomatlashtirilgan tizimlar – bojxona yig'imlarining tezkor va shaffof yig'ilishini ta'minlaydi.

Yagona ma'lumotlar bazasi va tarif tizimi – davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan bojxona siyosatini yuritishga yordam beradi.

Blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalari – bojxona jarayonlarining shaffofligini oshiradi va korrupsiyani kamaytiradi.

Differensiallashtirilgan yig'im tizimlari – milliy iqtisodiyot va ekologiyani qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlil va xorijiy tajribalarni inobatga olib, bojxona yig'imlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

- tadbirkorlarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida dastlabki qaror uchun undiriladigan yig'im miqdorini murojaat qilingan tovarlar soniga qarab belgilanish;

- bojxona organlaridan BYD bo'yicha ma'lumot olishda tovarlar soniga qarab bazaviy hisoblash miqdorining foizi hisobi bo'yicha yig'im undirish.

- bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im stavkasini eksport va import bojxona rejimlarida qo'llashni muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasida bojxona yig'imlarini hisoblash va undirish bo'yicha huquqiy me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish ularni qo'llashda bir qator qulayliklar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-422-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6721144>.

3. Pardayev T. Bojxona yig'implari va ularning iqtisodiyotga ta'siri. – Toshkent, 2021.
4. Shodmonqulov A., Pardayev T., Turdiyev B. Bojxona tizimini isloh qilishda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2022.
5. Jahon bojxona tashkiloti (WCO) statistik ma'lumotlari. www.wcoomd.org
6. Долгова А.Ю. Парафискальные сборы в России: монография. – Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та, 2012. – 195 с.
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
8. Customs.uz
9. Lex.uz